CHO‘LLASHISH MUAMMOSINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT: XALQARO TAJRIBA VA YONDASHUVLAR

Boymuratova O’g’iloy Qahramon qizi
CHDPU Tabiiy fanlar fakulteti geografiya yo’nalishi 2-bosqich talabasi
boymurodovaogiloy5@gmail.com +998950228706
Madadova Asaloy Jumaboy qizi
CHDPU Tabiiy fanlar fakulteti geografiya yo’nalishi 2-bosqich talabasi
madadovaasaloy8@gmail.com +998931027230
Ashirdurdiyeva Aygul Amandurdi qizi
CHDPU Tabiiy fanlar fakulteti geografiya yo’nalishi 2-bosqich talabasi
ashirdurdiyevaaygul59@gmail.com +998951826761
Sharofiddinova Shirin Shavkat qizi
CHDPU Tabiiy fanlar fakulteti geografiya yo’nalishi 2-bosqich talabasi
sharofiddinovvashirin@gmail.com +998994640630
*Ilmiy maslahatchi : **Abdalova Sayyora Rustamovna***
ChDPU “Umumiy pedagogika” kafedrasi dotsenti
abdalovasayora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo miqyosida cho‘llanish jarayonining tarqalishi, kelib chiqish sabablari va hududiy xususiyatlari yoritilgan. Cho‘llanishning yuzaga kelishida iqlim o‘zgarishi, yog‘in miqdorining kamayishi, qurg‘oqchilik, shamol va suv eroziyasi kabi tabiiy omillar bilan bir qatorda inson faoliyatining ta’siri muhim o‘rin tutishi tahlil qilinadi. Ayniqsa, yer va suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish, sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanishi, yaylovlarning haddan tashqari foydalanilishi cho‘llanish jarayonini tezlashtiruvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada Afrika, Osiyo, Avstraliya, Amerika va Yevropa qit’alarida kuzatilayotgan cho‘llanish jarayonlari qisqacha tahlil qilinib, ularning ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, cho‘llanishning qishloq xo‘jaligi, tabiiy resurslar va aholi turmush tarziga salbiy ta’siri yoritilib, mazkur muammoni kamaytirishga qaratilgan ayrim choralar haqida umumiy ma’lumot beril adi. Ushbu maqola cho‘llanish muammosini global miqyosda tushunishda muhim nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: cho‘llanish, global ekologik muammo, iqlim o‘zgarishi, yer degradatsiyasi, antropogen omillar, qurg‘oqchilik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются глобальное распространение, причины и региональные особенности опустынивания. Анализируется роль человеческой деятельности в возникновении опустынивания наряду с природными факторами, такими как изменение климата, уменьшение количества осадков, засуха, ветровая и водная эрозия. В частности, в качестве основных факторов, ускоряющих процесс опустынивания, определены нерациональное использование земельных и водных ресурсов, засоление орошаемых земель и чрезмерная эксплуатация пастбищ. В статье кратко анализируются процессы опустынивания, наблюдаемые на континентах Африка, Азия, Австралия, Америка и Европа, с акцентом на их экологические и социально-экономические последствия. Также освещается негативное влияние опустынивания на сельское хозяйство, природные ресурсы и образ жизни населения, и предоставляется общая информация о

некоторых мерах, направленных на смягчение этой проблемы. Данная статья имеет важное теоретическое значение для понимания проблемы опустынивания в глобальном масштабе.

Ключевые слова: опустынивание, глобальная экологическая проблема, изменение климата, деградация земель, антропогенные факторы, засуха.

Abstract: This article discusses the global distribution, causes, and regional characteristics of desertification. It analyzes the role of human activities in the emergence of desertification, along with natural factors such as climate change, reduced precipitation, drought, wind, and water erosion. In particular, the misuse of land and water resources, salinization of irrigated lands, and overexploitation of pastures are identified as the main factors accelerating the desertification process. The article briefly analyzes the desertification processes observed in the continents of Africa, Asia, Australia, America, and Europe, focusing on their ecological and socio-economic consequences. It also highlights the negative impact of desertification on agriculture, natural resources, and the lifestyle of the population, and provides general information about some measures aimed at reducing this problem. This article is of significant theoretical importance in understanding the problem of desertification on a global scale.

Keywords: desertification, global environmental problem, climate change, land degradation, anthropogenic factors, drought.

Kirish

Hozirgi kunda cho‘l va cho‘llashish jarayonlari butun dunyo miqyosida eng dolzarb ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Yer sharining katta qismi quruq va yarim quruq hududlardan iborat bo‘lib, bu hududlarda tabiiy sharoitlar nihoyatda murakkabdir. Aholi sonining oshib borishi, yer va suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish, iqlim o‘zgarishi kabi omillar cho‘llashish jarayonining tezlashishiga sabab bo‘lmoqda.

Cho‘llashish jarayoni nafaqat tabiatga, balki jamiyat hayotiga ham katta salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi yerlarining yaroqsiz holga kelishi, oziq-ovqat xavfsizligining pasayishi, aholi migratsiyasining kuchayishi shular jumlasidandir. Ayniqsa, Markaziy Osiyo hududida, jumladan O‘zbekistonda cho‘llashish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Cho‘l — yog‘in miqdori juda kam bo‘lgan, bug‘lanish darajasi yuqori, o‘simlik va hayvonot dunyosi siyrak tarqalgan tabiiy geografik hududdir. Cho‘llarda yiliga tushadigan yog‘in miqdori odatda 50–200 mm dan oshmaydi. Shu sababli bu hududlarda suv manbalari juda kam uchraydi.

Cho‘llarning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

-yog‘inning kamligi,
-haroratning keskin o‘zgarishi,
-shamol faoliyatining kuchli bo‘lishi,
-tuproq unumdorligining pastligi,
-o‘simlik qoplamining siyrakligi.

METODOLOGIYA

Cho‘llar turli tabiiy omillar ta’sirida shakllanadi. Ularning kelib chiqishida atmosferadagi havo massalarining aylanishi, geografik joylashuv, okean oqimlari va relyef muhim rol o‘ynaydi.Tropik cho‘llar subtropik yuqori bosim mintaqalarida joylashgan bo‘lib, bu hududlarda havo doimo pastga tushadi va yog‘in hosil bo‘lmaydi. Mo‘tadil mintaqa cho‘llari esa materik ichkarisida, okeanlardan uzoqda joylashgani sababli kam yog‘in oladi.Cho'llarning umumiy

tomoni shundaki, ularning tuprog'i quruq va faqat qurg'oqchilikka chidamli noyob o'simliklar o'sadi. Ular bir-biridan asosan tuproqning tashqi ko'rinishi va tarkibi bilan farq qiladi:

Cho‘llar bir necha belgilarga ko‘ra turkumlanadi.

Iqlimiga ko‘ra:

-Issiq cho‘llar (Sahara, Arabiston, Qizilqum);

-Sovuq cho‘llar (Gobi, Taklamakon).

Relyef va tuprog’iga ko’ra:

1.Qumli cho'llar: Qum uyumlari - barxanlar bilan qoplangan.(Qizilqum)

2.Loyli cho'llar: Qatqaloq taqir tuproq ko'pburchak shaklidagi mayda bo'laklarga bo'linib, yorilib ketadi.(Qoraqum)

3.Toshli cho'llar: Yirik va mayda toshlar bilan qoplangan bo'ladi.(Sahara tog’ oldi

4.Tuzli cho'llar: Tuz bilan qoplangan, xuddi yer yuzidagi qorga o'xshaydi.(Orolqum)

Namlanishiga ko’ra:

-mutloq quruq cho’llar;

-yarim cho’llar

Geografik joylashuviga ko’ra:

-suptropik cho’llar;

-mo’tadil mintaqa cho’llar;

-tropik mintaqa cho’llari.



1-rasm.Cho’llarning Turkumllari.

Cho‘l boyliklari. Cho’llar neft, gaz, oltin, marmar kabi foydali qazilmalar konlari joylashganligi sababli foyda keltiradi. Shuningdek, ba'zi cho'llarda atrofi daraxtlar bilan qoplangan kichik ko'llar (vohalar) mavjud bo'lib, u yerda hayot gullab-yashnaydi.

Cho’l og'ir sharoitli maskan bo'lsa-da, u yerda bir qancha hayvon va o'simliklar yashashga moslashgan. Odatda, bir vaqtning o'zida bir necha turdagi tuproq ko'rinishiga ega aralash cho'llar ham uchraydi.

Cho‘llanish – qurg‘oqchil iqlimli o‘lkalarda ekologik tizimlarning buzilishi, ulardagi organik hayotning barcha shakllari yomonlashuviga va natijada tabiiyiqtisodiy imkoniyatlarning pasayib ketishiga olib keluvchi tabiiygeografik hamda antropogen jarayonlar majmui. Bu

jarayonlar tabiiy o‘simliklar turlari va miqdorining kamayishi, tuproq eroziyasi, tuproqning sho‘rlanishi va unumdorligining kamayib ketishi kabilardan iborat. Cho‘llanish natijasida cho‘llarning maydoni ortadi, cho‘l tavsifli landshaftlar yuzaga keladi. Yer yuzasining 48,5 mln. km² ga yaqin kismi cho‘l va chala cho‘llardan iborat bo‘lib, uning 10 mln. km² ga yaqini antropogen omillar ta’sirida yuzaga kelgan.

MUHOKAMA

Cho‘llanish jarayoni deyarli barcha kit’alarda, ko‘proq Afrika, Osiyo, Avstraliya hamda Janubiy Amerikaning qurg‘oqchil iklimli hududlarida kuzatilmoqda. O‘rta Osiyoda Orol dengizi va Orolbo‘yi regionida ham mavjud bo‘lib, tang ekologik holat yuzaga keldi. Cho’llashish murakkab va jahon miqyosidagi ekologik muammoga aylandi. Cho’llashish 1968—1979 yillarda Afrikada Sahroi Kabirning jan. hududlarida, g‘arbdan Mavritaniya va Senegaldan boshlab, sharqda Chad va Sudan chegarasigacha bo‘lgan juda kata maydonda ro‘y bergan va bu qurg‘okchilik „Sahel fojiasi“ nomi bilan mashhur bo‘ldi. Cho’llashishni o‘rganish, oldini olish va unga qarshi kurashish choratadbirlari bo‘yicha jahon miqyosida ishlar olib boriladi. Bu mavzudagi ilmiy anjuman 1977-yilda Keniyaning Nayrobi shahrida o‘tkazilgan va unda Cho’llashishga qarshi kurash rejasi ishlab chiqilgan. Bunday ilmiy anjumanlar O‘zbekistonda 1981-yilda Toshkentda, 2000-yilda Samarqandda o‘tkazilgan. O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil 31 oktabrda qurg‘oqchilik va Cho’llashishga qarshi kurash Xalqaro konvensiyasiga qo‘shilgan.

XULOSA

Cho‘l va cho‘llashish jarayoni bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng muhim ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Cho‘llar tabiiy geografik hudud sifatida o‘ziga xos iqlim, o‘simlik va hayvonot dunyosiga ega bo‘lsa-da, cho‘llashish jarayoni inson faoliyati va iqlim o‘zgarishi natijasida tobora kengayib borayotgan salbiy hodisadir. Bu jarayon yerlarning unumdorligini pasaytiradi, suv resurslarini kamaytiradi va biologik xilma-xillikka jiddiy zarar yetkazadi**.** Cho‘llashishning asosiy sabablari sifatida noto‘g‘ri yer foydalanish, o‘rmonlarning kesilishi, ortiqcha chorva boqish, suvdan noo‘rin foydalanish va global iqlim o‘zgarishini ko‘rsatish mumkin. Ayniqsa, qurg‘oqchil hududlarda bu omillar bir-birini kuchaytirib, yerlarning tezda degradatsiyaga uchrashiga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, cho‘llashish jarayoniga qarshi kurashish har bir insonning va butun jamiyatning vazifasi bo‘lib, tabiatni asrash orqali kelajak avlodlarga sog‘lom va barqaror muhitni saqlab qolish mumkin. Agar bugundan boshlab ongli ravishda harakat qilinsa, ushbu muammoning salbiy oqibatlarini kamaytirish va yer resurslarini tiklash imkoniyati mavjud.

Foydalangan Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi materiallari.
2. United Nations (BMT) – Cho‘llashishga qarshi kurash konvensiyasi (UNCCD) ma’lumotlari.
3. Food and Agriculture Organization (FAO) hisobotlari va ekologik tadqiqotlari.
4. UNESCO – tabiiy resurslar va ekologiya bo‘yicha ma’lumotlar.
5. Geografiya (umumiy o‘rta ta’lim uchun darslik) – umumiy o‘rta ta’lim darsligi.
6. Ekologiya faniga oid ilmiy adabiyotlar va maqolalar.
7. Internet manbalari (ishonchli saytlardan olingan ekologik maqolalar va statistik ma’lumotlar).